



ON THE ETHNOLINGUISTIC FEATURES OF THE MADANIYAT VILLAGE DIALECT OF BAXMAL DISTRICT

Abdumannon Majidovich Khasanov

*Doctor of Philological Sciences
Institute of Uzbek Language, Literature and Folklore
Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan
Tashkent, Uzbekistan*

abdumannonhasanov3137@gmail.com
<https://orcid.org/0000-0002-8656-0521>
<https://doi.org/10.36078/1789028466>

Abstract. This article examines the ethnolinguistic features of the dialect spoken in Madaniyat Village, Baxmal District, Jizzakh Region. The primary aim of the study is to reveal the distinctive linguistic culture, national values, and worldview of the local population through dialectal units preserved in the speech of the community. The study employs descriptive, comparative-historical, componential, semantic, and ethnolinguistic methods of analysis. The research material consists of linguistic data collected from the Madaniyat Village dialect. The analysis demonstrates that kinship terms, lexical units associated with rituals and customs, lexemes expressing folk beliefs and mythological conceptions, children's folklore, material culture, the natural and geographical environment, and axiological vocabulary constitute important conceptual domains reflecting the ethnocultural experience of the local population. The study establishes that dialectal units perform not only a nominative function but also serve as linguistic markers that preserve the community's historical memory, social relations, moral values, and cultural identity. Furthermore, the mountainous natural environment of Baxmal and traditional economic activities are shown to be important extralinguistic factors in the formation of the dialect's lexical inventory. The scholarly novelty of the study lies in the first systematic analysis of the linguistic materials of the Madaniyat Village dialect using a comprehensive ethnolinguistic approach. The findings contribute to the fields of Uzbek dialectology, ethnolinguistics, and linguocultural studies, while also facilitating the documentation and scholarly incorporation of elements of intangible cultural heritage preserved in local dialects.

Keywords: ethnolinguistics; Madaniyat Village dialect; ethnoculture; ritual vocabulary; lexical differentiation; material culture.

BAXMAL TUMANI MADANIYAT QISHLOG'1 SHEVASINING ETNOLINGVISTIK XUSUSIYATLARI HAQIDA

Abdumannon Majidovich Hasanov

Filologiya fanlari doktori

*O‘zR Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti
Toshkent, O‘zbekiston*

Annotatsiya. Mazkur maqolada Jizzax viloyati Baxmal tumani Madaniyat qishlog‘i shevasining etnolingvistik xususiyatlari tadqiq etilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi shevada saqlanib qolgan dialekt birliklari orqali mahalliy aholining o‘ziga xos lisoniy madaniyati, milliy qadriyatlari hamda dunyoqarashini aniqlashdan iborat. Tadqiqot jarayonida tavsifiy, qiyosiy-tarixiy, komponent tahlil, semantik tahlil va etnolingvistik talqin metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot materiali sifatida Madaniyat qishlog‘i shevasi namunalari olindi. Tahlillar natijasida sheva leksikasida qarindoshlik terminlari, marosim va urf-odatlariga oid birliklar, xalq e‘tiqodlari va mifologik tasavvurlarni ifodalovchi leksemalar, bolalar folklori, moddiy madaniyat, tabiiy-geografik muhit hamda aksiologik leksika xalqning etnomadaniy tajribasini aks ettiruvchi muhim konseptual qatlamni tashkil etishi aniqlandi. Dialekt birliklari nafaqat nominativ vazifani bajarishi, balki xalqning tarixiy xotirasi, ijtimoiy munosabatlari, axloqiy qadriyatlari va madaniy identitetini saqlovchi lisoniy belgilar ekanligi asoslandi. Shuningdek, Baxmalning tog‘li tabiiy muhiti va an‘anaviy xo‘jalik faoliyati sheva lug‘atining shakllanishida muhim ekstralingvistik omillar sifatida namoyon bo‘lishi ko‘rsatildi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi Madaniyat qishlog‘i shevasi materiallarining ilk bor kompleks etnolingvistik yondashuv asosida tizimli ravishda tahlil qilinganligi bilan belgilanadi. Olingan natijalar o‘zbek dialektologiyasi, etnolingvistika va lingvomadaniyatshunoslik yo‘nalishlaridagi tadqiqotlarni boyitishga, shuningdek, shevalarda saqlanib qolgan nomoddiy madaniy merosni hujjatlashtirish va ilmiy muomalaga kiritishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: etnolingvistika; Madaniyat qishlog‘i shevasi; etnomadaniyat; marosim leksikasi; leksik farqlanish; moddiy madaniyat.

Kirish

XXI asr tilshunosligida tilni inson, jamiyat va madaniyat bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganishga asoslangan antroposentrik paradigma yetakchi ilmiy yo‘nalishlardan biriga aylandi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, til faqat kommunikativ vosita emas, balki muayyan xalqning tarixiy tajribasi, ijtimoiy xotirasi, milliy tafakkuri va madaniy qadriyatlarini o‘zida mujassamlashtiruvchi murakkab semiotik tizim hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan etnolingvistika til birliklari orqali xalqning dunyoni idrok etish usuli, urf-odatlari, marosimlari, an‘anaviy xo‘jalik faoliyati hamda ma‘naviy olamini tadqiq etuvchi muhim soha sifatida shakllandi. Bugungi kunda jahon tilshunosligida sheva materiallarini etnolingvistik yondashuv asosida o‘rganish til va madaniyat o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni yoritishning eng samarali yo‘nalishlaridan biri sifatida e‘tirof etilmoqda.

O'zbek shevalari milliy tilning tarixiy taraqqiyot bosqichlarini o'zida saqlab qolgan noyob lisoniy qatlamlardan biridir [Yusufov, 2025: 167]. Adabiy til me'yorlari tobora barqarorlashib borayotgan hozirgi davrda ko'plab qadimiy leksik birliklar faol iste'moldan chiqayotgan bo'lsa-da, ularning ayrimlari muayyan shevalarda dastlabki semantik va madaniy xususiyatlarini saqlab qolmoqda [Khasanov, 2026: 28]. Aynan shevalarda xalqning ko'p asrlik turmush tarzi, mehnat faoliyati, ijtimoiy munosabatlari, diniy va mifologik qarashlari hamda moddiy madaniyatiga oid muhim lisoniy dalillar jamlangan. Shu bois dialektal leksikani etnolingvistik jihatdan tadqiq etish nafaqat dialektologiya, balki etnologiya, folklorshunoslik, tarix, lingvomadaniyatshunoslik va kognitiv tilshunoslik uchun ham muhim ilmiy manba vazifasini bajaradi.

Jizzax viloyati Baxmal tumani hududi tabiiy-geografik sharoiti, tog'li landshafti, qadimiy dehqonchilik va chorvachilik an'analari, shuningdek, uzoq davr davomida yashab kelgan mahalliy aholi tarkibi bilan o'zbek dialektologiyasida alohida o'rin egallaydi. Hududning tog' va adir zonalarida yashovchi aholining kundalik nutqida adabiy tilda uchramaydigan yoki ma'noviy jihatdan farqlanadigan ko'plab dialektal birliklar bugungi kungacha faol qo'llanib kelmoqda [Ochilova, 2026: 85]. Bunday birliklarda umumxalq uchun ma'lum tushuncha ifodalangan bo'lsa-da, qaysidir jihati yoki darajasi bilan farqlanuvchi ma'noviy nozikligi mavjudligini inkor etish mushkul [Andaniyazova, 2024: 93]. Ushbu birliklar oddiy nominativ birliklar emas, balki mahalliy aholining yashash tarzi, tabiat bilan munosabati, ijtimoiy qadriyatlari va madaniy tajribasini aks ettiruvchi etnomadaniy kodlardir [Xudoyberganova, 2022: 60].

Mazkur sheva materiallari shuni ko'rsatadiki, dialektal leksika faqat predmet va hodisalarni nomlash vositasi emas, balki xalqning tarixiy taraqqiyoti, tabiiy-geografik muhiti, ijtimoiy munosabatlari va aksiologik qarashlarini mujassamlashtirgan murakkab madaniy tizimdir. Shu sababli Madaniyat qishlog'i shevasini etnolingvistik nuqtayi nazardan kompleks o'rganish o'zbek dialektologiyasini yangi empirik materiallar bilan boyitish, o'zbek xalqining nomlash tamoyillari va lingvomadaniy tafakkurini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Mazkur tadqiqotda Baxmal tumani Madaniyat qishlog'i shevasida qayd etilgan dialekt birliklari etnolingvistik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida ularning semantik tuzilishi, qo'llanish muhiti, etnomadaniy mazmuni hamda xalqning moddiy va ma'naviy madaniyatini aks ettirishdagi o'rni aniqlanadi. Natijalar o'zbek dialektologiyasi, etnolingvistika va lingvomadaniyatshunoslik yo'nalishlarida olib

borilayotgan ilmiy izlanishlarni yangi dalillar bilan boyitishga, shuningdek, dialektal leksikaning milliy til taraqqiyotidagi ahamiyatini yanada chuqurroq yoritishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi Jizzax viloyati Baxmal tumani Madaniyat qishlog'i shevasi leksikasining etnolingvistik xususiyatlarini aniqlash, dialekt birliklarida aks etgan moddiy va ma'naviy madaniyat unsurlarini ilmiy jihatdan tavsiflash hamda ular orqali mahalliy aholining tarixiy-madaniy dunyoqarashi, an'anaviy turmush tarzi va milliy tafakkurining til birliklarida namoyon bo'lish mexanizmlarini yoritishdan iborat.

Tadqiqot metodlari

Tadqiqotda zamonaviy dialektologiya, etnolingvistika va lingvomadaniyatshunoslikning metodologik tamoyillariga tayanildi. Baxmal tumani Madaniyat qishlog'i shevasidan yozib olingan dialekt birliklari tadqiqotning asosiy empirik manbayi sifatida qabul qilinib, ularning semantik tuzilishi, qo'llanish muhiti va etnomadaniy mazmuni o'zaro bog'liqlikda tahlil qilindi.

Tadqiqotning asosiy metodi sifatida tavsifiy metoddan foydalanildi. Ushbu metod yordamida dialekt birliklari tizimlashtirildi, ularning lug'aviy ma'nolari, qo'llanish doirasi hamda nutqiy vazifalari tavsiflandi. Har bir leksik birlik o'zining real kommunikativ muhitida baholanib, uning adabiy til bilan munosabati ham aniqlashtirildi.

Komponent tahlil yordamida dialekt birliklarining semantik tarkibi mayda ma'no unsurlariga ajratildi. Bu usul, ayniqsa, qarindoshlik terminlari, marosim nomlari, xalq e'tiqodlari va baholovchi leksikaning ichki semantik tuzilishini aniqlashda muhim metodik vosita bo'lib xizmat qildi.

Etnolingvistik tahlil tadqiqotning yetakchi metodologik yo'nalishini tashkil etdi. Mazkur metod asosida dialekt birliklari xalqning moddiy va ma'naviy madaniyati, urf-odatlar, marosimlari, xalq tabobati, bolalar folklori, an'anaviy xo'jalik faoliyati va diniy-mifologik qarashlari bilan bog'liq holda talqin qilindi. Natijada til birliklarida mujassamlashgan etnomadaniy axborotning lisoniy ifodalanish mexanizmlari ochib berildi.

Qiyosiy metod yordamida Madaniyat qishlog'i shevasidagi ayrim dialekt birliklari o'zbek adabiy tili hamda boshqa hudud shevalarida uchraydigan muqobil birliklar bilan qiyoslandi. Bu esa ularning umumturkiy, hududiy va sotsiomadaniy xususiyatlarini aniqlash, semantik o'zgarishlarini tavsiflash imkonini berdi [Hasanov, 2022: 45–49].

Lingvomadaniy yondashuv asosida har bir dialekt birligi xalq madaniyatining tarkibiy elementi sifatida baholandi. Leksik birliklarning ortida turgan milliy qadriyatlar, ijtimoiy munosabatlar, axloqiy me'yorlar, marosimlar va madaniy konseptlar aniqlanib, ular yagona etnomadaniy tizim sifatida talqin qilindi.

Qo'llangan metodlarning o'zaro uyg'unligi tadqiqot obyektni kompleks yondashuv asosida o'rganishga, dialekt birliklarining lisoniy, semantik va etnomadaniy xususiyatlarini izchil yoritishga hamda ilmiy xulosalarning ishonchliligini ta'minlashga xizmat qildi.

Natijalar va muhokama

Madaniyat qishlog'i shevasi leksikasining etnolingvistik tahlili ushbu hududda qarindoshlik munosabatlarini ifodalovchi birliklar alohida semantik tizimni tashkil etishini ko'rsatdi [Yusufov 2024: 89]. Qarindoshlik terminlari faqat oilaviy, qondoshlik va nasl-asab munosabatlarini emas, balki xalqning oilaviy qadriyatlari, nutq odobi, ijtimoiy ierarxiyasi va axloqiy me'yorlarini ham o'zida mujassamlashtiradi. Ayniqsa, ayollarning turmush o'rtog'i yoki uning qarindoshlarini bevosita nomlamaslik va ismini aytmaslik odati bilan bog'liq evfemik birliklarning saqlanib qolganligi mazkur shevaning eng muhim etnolingvistik xususiyatlaridan biridir.

Tahlil qilingan materiallar orasida *äkäniz* leksemasi alohida e'tiborni tortadi. Ushbu birlik ayol nutqida eriga nisbatan qo'llanadigan hurmat-ehtirom ifodasidir. So'zning tarkibidagi ikkinchi shaxs ko'plik qo'shimchasi shaxsga nisbatan grammatik ko'plikni emas, balki o'zbek xalqiga xos hurmat kategoriyasini ifodalaydi [Baratova, 2021: 576]. Bunday murojaat shakli oiladagi ijtimoiy munosabatlar va milliy nutq odobining lisoniy ifodasidir.

Xuddi shunday, *ätämnü vägli* birikmasi ham ayol tomonidan eriga nisbatan ishlatiladigan evfemik nomlash hisoblanadi. Mazkur birlik erni bevosita ismi bilan atamaslik ehtiyojidan yuzaga kelgan. Bunday hodisa turkiy xalqlar etnografiyasida keng uchraydigan tabu va evfemizatsiya jarayonlarining til tizimidagi ko'rinishidir. Boshqa hududlar va shevalarda ham xotin tomonidan erni *u kishi, otasi, dadasi* tarzida ifodalanishi hech kimga sir emas.

Qarindoshlik tizimida *bäläçä* leksemasi ham o'ziga xos etnolingvistik mazmunga ega. Ushbu birlik ayol tomonidan qayinukaga nisbatan qo'llanadi. Aytib o'tilganidek, ayol o'z erininggina emas, er tomondan qarindosh bo'lgan kishilarning ham ismini aytmaydi. Bu esa ularni yuqoridagi kabi evfemik ifodalar bilan atash zaruratini yuzaga keltiradi.

Shevada uchraydigan *ämäg* leksemasi esa amaki va amakivachcha ma'nolarini ifodalashi bilan semantik kengayish hodisasini namoyon etadi. Bu so'zga parallel tarzda yoshi katta kishilar orasida *ovo* so'zining ham qo'llanayotgani ham kuzatiladi [Khasanov, 2026: 41]. Qarindoshlikning ikki pog'onasi bitta leksema orqali ifodalanishi mahalliy aholining qarindoshlik tizimini idrok etishida umumlashtirish tendensiyasi mavjudligini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, *äpäçä* (*äpçä*), *ätä ürüg*, *ätä-bāvā* kabi birliklar qarindoshlik munosabatlarining turli darajalarini ifodalab, mahalliy nutqda qarindoshlar o'rtasidagi yaqinlik, hurmat va avlodlar davomiyligi tushunchalarini aks ettiradi. Ayniqsa, *ätä-bāvā* birikmasida ajdodlarni ulug'lash g'oyasi, *ätä ürüg* leksemasida esa ota tomondan qarindoshlikning alohida ajratilishi xalqning genealogik qarashlari o'z aksini topgan.

Har bir xalqning madaniy xotirasi, avvalo, uning marosim va urf-odatlarida namoyon bo'ladi. Ana shu marosimlarning lisoniy ifodasi esa etnolingvistika uchun eng muhim obyektlardan hisoblanadi. Madaniyat qishlog'i shevasi materiallari tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur hududda nikoh, qarindoshlik, motam va kundalik ijtimoiy munosabatlarga oid qadimiy marosim nomlari hozirgacha faol qo'llanib kelmoqda [Hasanov, 2025: 183]. Bu birliklar nafaqat muayyan marosimni nomlaydi, balki xalqning dunyoqarashi, ijtimoiy birdamligi va qadriyatlar tizimini ham aks ettiradi.

Madaniyat qishlog'i shevasida uchraydigan *älmäštävāg* leksemasi ana shunday etnografik birliklardan biridir. Mazkur birlik bo'lajak qudalar tomonidan ro'zg'ordagi idish-tovoqlarni o'zaro almashtirish odatini anglatadi. Ushbu marosim ikki oilaning qarindoshlik munosabatlari rasmiylashayotganini bildiruvchi ramziy harakat hisoblanadi. Idish-tovoqning almashtirilishi oddiy moddiy buyumlar almashinuvi emas, balki ikki xonadon o'rtasidagi ishonch, hamjihatlik va qarindoshlik rishtalarining mustahkamlanishini ifodalaydi. Shu sababli *älmäštävāg* leksemasi moddiy madaniyat va ijtimoiy munosabatlarning uzviy bog'liqligini ifodalovchi muhim etnolingvistik birlik sifatida baholanishi mumkin.

Nikoh marosimlari bilan bog'liq yana bir qiziqarli birlik *ätäçäqirdi* hisoblanadi. Ushbu leksema qiz uzatilganidan keyin uning ota uyiga ilk bor mehmon bo'lib kelishini anglatuvchi marosim nomidir. Mazkur udum o'zbek xalqining oilaviy qadriyatlari va qarindoshlik munosabatlarini mustahkamlashga xizmat qiladigan, ko'pgina hududlarda uchraydigan odat sanaladi (va shevalarda *qizchaqirdi*, *otako'rdi* shaklida ifodalanadi). Qizning ota uyiga ilk tashrifi nafaqat oilaviy sog'inchni bartaraf etish, balki yangi qarindoshlik munosabatlarini mustahkamlash, kelinning yangi

maqomini e'tirof etish vazifasini ham bajaradi. Demak, *ätäçäqirdi* leksemasida xalqning oilaviy birdamlik haqidagi qarashlari mujassamlashgan.

Til xalqning dunyo haqidagi tasavvurlarini, diniy e'tiqodlarini va mifologik qarashlarini o'zida mujassamlashtiruvchi eng muhim madaniy tizimlardan biridir [Mahmudov, 2012: 9]. Ayniqsa, dialekt leksikasi tarkibida qadimgi animistik, totemistik va islomgacha bo'lgan e'tiqod qatlamlari bilan bog'liq ko'plab birliklar saqlanib qolgan. Bunday birliklar xalqning olamni idrok etish usuli, tabiat va g'ayritabiiy kuchlar haqidagi tasavvurlari, shuningdek, kasallik, salomatlik, baxt va ofatga bo'lgan munosabatini aks ettiradi. Madaniyat qishlog'i shevasi materiallari ham mazkur jihatdan etnolingvistik xususiyatlarga boy manba hisoblanadi.

Shevada qayd etilgan *ärväxkápäläk* leksemasi xalq mifologiyasining qadimiy qatlamlarini o'zida saqlab qolgan birliklardan biridir. Mazkur so'z kichik kapalakni anglatishi bilan birga, mahalliy e'tiqodga ko'ra marhumning ruhi kapalak qiyofasida namoyon bo'lishi haqidagi tasavvurni ham ifodalaydi. Bunday qarashlar turkiy xalqlarning qadimgi animistik dunyoqarashi bilan uzviy bog'liq [Begjanov, 2026: 577] bo'lib, inson ruhi tabiatdagi ayrim jonzotlar orqali namoyon bo'lishi mumkinligi haqidagi mifologik tasavvurlarning til tizimida saqlanib qolganini ko'rsatadi. Bu yerda kapalak oddiy hasharot emas, balki ikki olam — tiriklar va ajdodlar olamini bog'lovchi ramziy obraz vazifasini bajaradi.

Madaniyat qishlog'i shevasida diniy va xalqona himoya vositalari bilan bog'liq *bāzvānt* leksemasi ham uchraydi. Ushbu birlik ichiga duo yozilib, matoga o'raladigan tumorni bildiradi. Tumor taqish odati Markaziy Osiyo xalqlarida islomiy e'tiqod elementlari bilan qadimgi mifologik tasavvurlar uyg'unlashgan sinkretik madaniy hodisa hisoblanadi. Mahalliy aholi tasavvurida bunday buyum insonni ko'z tegishi (nazarlanish), kasallik yoki turli balolardan asraydi. Demak, *bāzvānt* leksemasi xalqning diniy tafakkuri bilan bir qatorda, qadimgi himoya magiyasi unsurlarini ham o'zida mujassamlashtirgan etnomadaniy birlikdir.

Har bir xalqning ma'naviy madaniyatida xalq o'yinlari alohida o'rin tutadi. Xalq o'yinlari, murojaat shakllari, sanamalar va o'yin jarayonida qo'llanadigan maxsus birliklar yosh avlodni jismonan chiniqtirish, ijtimoiy munosabatlarga tayyorlash hamda milliy qadriyatlarni avloddan avlodga uzatishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi [Isayeva, 2025: 48]. Shu sababli xalq o'yinlariga oid dialekt birliklari nafaqat tilshunoslik, balki etnografiya, folklorshunoslik va xalq pedagogikasi uchun ham muhim ilmiy manba hisoblanadi. Madaniyat qishlog'i shevasi materiallari mazkur yo'nalishda ham boy etnolingvistik materiallarga ega.

Shevada kuzatiladigan *äkkān-äkkān* leksemasi bolalar oʻrtasida oyoqlarni sanash asosida oʻynaladigan xalq oʻyinini anglatadi. Mazkur oʻyin tashqi koʻrinishidan oddiy koʻngilochar mashgʻulot boʻlib tuyulsa-da, uning ichki mazmunida bolalarning diqqatini jamlash, navbat kutish, ritmni his qilish va tengdoshlari bilan muloqot qilish koʻnikmalarini shakllantirish kabi vazifalar mujassamdir. Oʻyin davomida takrorlanuvchi harakatlar va ogʻzaki sanash elementlari bolalarda xotira va nutqni rivojlantirishga xizmat qiladi. Demak, *äkkān-äkkān* nafaqat oʻyin nomi, balki xalq pedagogikasining muhim unsurlaridan biridir.

Bolalar oʻyinlari tizimida *bäyrāq-bäyrāq* leksemasi ham alohida oʻrin egallaydi. Ushbu birlik ikki guruhga boʻlinib, raqib jamoaning bayrogʻini olib qochishga asoslangan harakatli oʻyinni bildiradi. Mazkur oʻyin bolalarda jamoaviylik, hamkorlik, strategik fikrlash, epchillik va masʼuliyat tuygʻusini rivojlantiradi. Oʻyinning mazmunida jamoa manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qoʻyish gʻoyasi mujassamlashgan boʻlib, bu holat umumiy kollektiv tafakkuri va jamoaviy hayot tarzining bolalar tarbiyasidagi aksidir.

Etnolingvistika fanida moddiy madaniyatni ifodalovchi leksik birliklar xalqning tarixiy turmush tarzi, xoʻjalik faoliyati va kundalik hayotini oʻrganishda muhim manba sifatida qaraladi. Uy-joy qurilishi, roʻzgʻor buyumlari, mehnat qurollari, oziq-ovqat tayyorlash anʼanalari hamda chorvachilik va dehqonchilik bilan bogʻliq terminlar muayyan etnosning koʻp asrlik hayot tajribasini til vositasida saqlab keladi [Joʻrayev, 1981: 62]. Ayniqsa, dala ishlari va yem-xashak tayyorlash jarayonida qoʻllanilgan mehnat qurollarini ifodalovchi leksemalar xalqning koʻp asrlik xoʻjalik tajribasi hamda tabiiy-geografik sharoitga moslashgan turmush tarzini oʻzida mujassamlashtiradi. Bunday birliklar orasida *hakkachoʻp* leksemasi alohida oʻrin tutadi.

Hakkachoʻp — yantoq, tikonli butalar va boshqa sanchuvchi oʻsimliklarni oʻrish hamda yigʻishtirish jarayonida oʻroq bilan birgalikda qoʻllanadigan Y shaklidagi mehnat qurolini anglatadi. Mazkur asbobning asosiy vazifasi tikonli oʻsimliklarni qoʻl bilan ushlamasdan oʻrish, yigʻish va bosishdir. U oʻroq bilan yonma-yon tarzda ishlatilib, mehnat qiluvchining “ikkinchi qoʻl”i sifatida koʻpgina vazifalarni bajara oladi. Umuman, *hakkachoʻp* dehqonning mehnatini yengillashtiruvchi va tikondan jarohatlanish xavfini kamaytiruvchi yordamchi vosita sifatida xizmat qiladi.

Mazkur leksema mahalliy aholining tabiiy muhit xususiyatlarini chuqur hisobga olgan mehnat madaniyatini aks ettiradi. Yondosh hududlarda bu asbobning *ayrichoʻka* tarzida nomlanganini ham shu oʻrinda aytib oʻtish joiz [Gʻulomov, 2025: 138]. Qurgʻoqchil hududlarda keng tarqalgan yantoq

va boshqa tikonli o'simliklar chorva uchun qimmatli yem-xashak manbayi bo'lganligi sababli ularni yig'ishtirishda maxsus moslamalarga ehtiyoj tug'ilgan. *Hakkacho'p* ana shu ehtiyoj natijasida yuzaga kelgan xalqona texnologik yechimlardan biri sifatida baholanishi mumkin. Ushbu birlikning shevada saqlanib qolganligi mahalliy aholining an'anaviy chorvachilik madaniyati, mehnat qurollari hamda xalq amaliy tajribasining til orqali avloddan avlodga o'tib kelayotganidan dalolat beradi [Khasanov, 2026: 9].

Madaniyat qishlog'i shevasida uy-ro'zg'or ishlari va an'anaviy xo'jalik faoliyati bilan bog'liq leksik birliklar xalqning kundalik turmush madaniyatini yoritishda muhim etnolingvistik manba hisoblanadi. Xususan, o'choq va tandir atrofidagi yumushlarda qo'llanilgan mehnat anjomlarini ifodalovchi leksemalar mahalliy aholining uzoq yillar davomida shakllangan maishiy tajribasi hamda milliy turmush tarzining o'ziga xos jihatlarini aks ettiradi. Ana shunday birliklardan biri *kulālgich* leksemasidir. Bu so'z o'choq va tandirdagi kulni, shuningdek, supurilgan chiqindilarni tog'ora yoki boshqa idishga solish uchun ishlatiladigan kuraksimon anjomni ifodalaydi. Ushbu buyum asosan metallardan tayyorlanib, uy-ro'zg'or tozaligini saqlash hamda o'choq va tandirni keyingi foydalanishga tayyorlash jarayonida muhim yordamchi vosita vazifasini bajaradi. Mazkur anjomning qo'llanilishi an'anaviy o'zbek xonadonlarida o'choq-tandir ishlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, kundalik maishiy hayotning ajralmas qismi hisoblanadi.

Moddiy madaniyat leksikasida chorvachilik bilan bog'liq birliklar ham alohida qatlamni tashkil etadi. Baxmal tumanining tog'oldi va yaylov hududlari qadimdan chorvachilik uchun qulay tabiiy sharoit yaratgan [Egamov, 1955: 142]. Shu sababli chorva parvarishi, yaylovlardan foydalanish, chorva mahsulotlarini qayta ishlash va ularga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq ko'plab dialekt birliklari shevada faol qo'llanadi. Mazkur terminlar mahalliy aholining asosiy xo'jalik tarmoqlaridan biri bo'lgan chorvachilikning til tizimidagi aksidir.

Madaniyat qishlog'i shevasining moddiy madaniyatga oid leksikasida yog'och, tosh va tabiiy xomashyodan tayyorlangan buyumlarning nomlari ham salmoqli o'rin egallaydi. Bu holat hudud aholisining uzoq vaqt davomida tabiiy resurslardan oqilona foydalanib kelganini ko'rsatadi. Buyumlarning vazifasiga qarab maxsus nomlarning shakllanishi xalqning amaliy tafakkuri va predmetlarni funksional tasniflash qobiliyatining natijasidir [Khasanov, 2026: 6].

Etnolingvistik nuqtayi nazardan moddiy madaniyatni ifodalovchi dialekt birliklari faqat predmetlarning nomini emas, balki ularni yaratish, ishlatish

va avloddan avlodga o'tkazish bilan bog'liq madaniy tajribani ham ifodalaydi. Har bir leksema ortida muayyan mehnat jarayoni, xo'jalik faoliyati yoki kundalik turmush tajribasi mujassamlashgan. Shu sababli bunday birliklarni xalqning moddiy madaniy merosini saqlovchi lisoniy belgilar sifatida baholash mumkin.

Shuningdek, ayrim uy-ro'zg'or buyumlari va mehnat qurollarining nomlari bugungi kunda faol iste'moldan chiqib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar va sanoat mahsulotlarining keng tarqalishi natijasida ularning o'rnini yangi predmetlar egallamoqda. Biroq dialekt leksikasida bu birliklarning saqlanib qolishi xalqning tarixiy turmush tarzi va xo'jalik madaniyatini tiklash uchun muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Demak, Madaniyat qishlog'i shevasining moddiy madaniyatga oid leksikasi hudud aholisining an'anaviy xo'jaligi, mehnat faoliyati, uy-ro'zg'or madaniyati va milliy hayot tarzining til tizimidagi ifodasidir [Hasanov, 2025: 120]. Ushbu qatlamning etnolingvistik tahlili o'zbek xalqining tarixiy-madaniy merosini chuqurroq anglash, shuningdek, dialektal leksikaning milliy til taraqqiyotidagi o'rnini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi [Darvishov, 2019: 66].

Muhokama

Mazkur tadqiqot natijalari Baxmal tumani Madaniyat qishlog'i shevasi leksikasi nafaqat dialektologik, balki etnolingvistik nuqtayi nazardan ham muhim ilmiy manba ekanligini ko'rsatdi. Tahlillar shuni tasdiqlaydiki, sheva lug'at tarkibidagi birliklar mahalliy aholining tarixiy shakllangan turmush tarzi, ijtimoiy munosabatlari, moddiy va ma'naviy madaniyati hamda tabiiy-geografik muhiti bilan uzviy bog'liq holda taraqqiy etgan. Shu jihatdan dialektal leksika faqat nominativ tizim emas, balki xalqning ko'p asrlik madaniy tajribasi va jamoaviy xotirasini saqlovchi lisoniy mexanizm vazifasini bajaradi.

Tadqiqot davomida dialekt birliklarini tematik-semantik guruhlariga ajratish ularning etnomadaniy mazmunini chuqurroq ochish imkonini berdi. Qarindoshlik terminlari, marosim leksikasi, xalq e'tiqodlariga oid birliklar, xalq o'yinlari bilan bog'liq so'zlar, maishiy leksika o'zaro uzviy bog'langan yagona etnomadaniy tizimni tashkil etishi aniqlandi. Mazkur tizimning har bir qatlami alohida madaniy konseptni ifodalasa-da, ular umumiy holda Madaniyat qishlog'i aholisining milliy dunyoqarashini aks ettiradi.

Qarindoshlik terminlarining tahlili shuni ko'rsatdiki, mahalliy shevada ayol nutqiga xos evfemik murojaat shakllari hozirgi kungacha faol saqlanib qolgan. Bu hodisa o'zbek xalqining oilaviy odob-axloq me'yorlari va nutq

etiketi dialekt tizimida nisbatan barqaror saqlanayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, erni yoki uning yaqin qarindoshlarini bevosita nomlamaslik bilan bog'liq birliklar oiladagi ijtimoiy munosabatlarning til orqali tartibga solinishini namoyon etadi. Bunday birliklarning saqlanib qolishi shevalarning qadimiy etiket formulalarini konservatsiya qiluvchi lisoniy makon ekanligini tasdiqlaydi.

Marosim leksikasining tahlili esa nikoh, motam va qarindoshlik munosabatlariga oid ko'plab qadimiy birliklarning bugungi kunda ham faol qo'llanayotganini ko'rsatdi. Bu holat marosimlar va ularga oid terminologiya tilning eng konservativ qatlamlaridan biri ekanligini yana bir bor isbotlaydi. Ayniqsa, nikoh marosimlari bilan bog'liq dialekt birliklarida jamoaviylik, qarindoshlik rishtalarini mustahkamlash va ijtimoiy birdamlik g'oyalari yaqqol namoyon bo'ladi.

Xalq e'tiqodlariga oid birliklar tahlili Madaniyat qishlog'i shevasida qadimgi animistik qarashlar, xalq tabobati va islomiy an'analar o'zaro uyg'unlashgan murakkab etnomadaniy tizim mavjudligini ko'rsatdi. Ruh, tumor, qushnochlik va xalqona davolash usullariga oid birliklar diniy va mifologik tasavvurlarning sheva leksikasida izchil saqlanib qolganini tasdiqlaydi. Bu esa dialekt materiallari yordamida xalqning qadimgi dunyoqarashini rekonstruksiya qilish mumkinligini ko'rsatadi.

Xalq o'yinlariga oid birliklar tahlili esa xalq pedagogikasining til bilan chambarchas bog'liqligini namoyon etdi. O'yin nomlari va bolalar nutqiga xos birliklar yosh avlodni jamoaviylik, epchillik, tartib-intizom va o'zaro hurmat ruhida tarbiyalashga xizmat qilgan. Bu holat tilning tarbiyaviy funksiyasi sheva materiallarida ayniqsa yaqqol namoyon bo'lishini ko'rsatadi.

Moddiy madaniyatga oid birliklar esa xalqning an'anaviy xo'jaligi, mehnat qurollari, uy-ro'zg'or buyumlari va gastronomik madaniyatining til tizimidagi aksini namoyon etdi. Bu birliklar zamonaviy hayot ta'sirida asta-sekin passiv qatlamga o'tib borayotgan bo'lsa-da, ular tarixiy-etnografik ma'lumotlarni saqlab qolayotgan noyob lisoniy manba sifatida alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, Baxmal tumani Madaniyat qishlog'i shevasi materiallari ilk bor kompleks etnolingvistik yondashuv asosida tizimli ravishda tahlil qilindi. Oldingi tadqiqotlarning aksariyatida dialekt birliklari asosan fonetik, leksik yoki grammatik jihatdan tavsiflangan bo'lsa, ushbu maqolada ular xalqning madaniy xotirasi, qadriyatlari va konseptual dunyoqarashini aks ettiruvchi lisoniy belgilar sifatida baholandi. Bu yondashuv dialektologiya va etnolingvistika

o'rtasidagi integratsiyani kuchaytiradi hamda dialekt materiallarini yangi metodologik asosda talqin qilish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Madaniyat qishlog'i shevasi o'zbek tilining tarixiy taraqqiyot bosqichlarini, milliy madaniyatning ko'plab qadimiy qatlamlarini va mahalliy etnik tajribani o'zida saqlab qolgan noyob lisoniy tizimdir. Shu sababli bunday sheva materiallarini hujjatlashtirish, elektron korpuslarini yaratish, etnolingvistik lug'atlarini tuzish va ularni zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida ilmiy muomalaga kiritish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Kelgusidagi tadqiqotlarda Baxmal tumanining boshqa qishloq shevalarini qiyosiy-etnolingvistik jihatdan o'rganish, Madaniyat qishlog'i materiallarini boshqa qarluq shevalari bilan taqqoslash hamda dialekt birliklarining konseptual xaritasini yaratish o'zbek etnolingvistikasining yangi istiqbolli yo'nalishlaridan biri bo'lishi mumkin.

Xulosa

Mazkur tadqiqot Baxmal tumani Madaniyat qishlog'i shevasi leksikasining etnolingvistik xususiyatlarini kompleks tahlil qilish orqali ushbu sheva o'zbek xalqining moddiy va ma'naviy madaniyatini saqlab qolgan muhim lisoniy manbalardan biri ekanligini ko'rsatdi. Tadqiqot natijalari dialektal birliklar faqat muayyan predmet, hodisa yoki tushunchalarni nomlash vazifasini bajarmasdan, balki xalqning tarixiy xotirasi, milliy qadriyatlari, dunyoqarashi va ijtimoiy tajribasini ham o'zida mujassamlashtirishini tasdiqladi.

Tahlil jarayonida Madaniyat qishlog'i shevasi leksikasi qarindoshlik terminlari, marosim va urf-odatlariga oid birliklar, xalq e'tiqodlari va mifologik tasavvurlarni ifodalovchi leksemalar, xalq o'yinlari bilan bog'liq so'zlar, maishiy leksika kabi tematik guruhlar asosida tizimli ravishda o'rganildi. Har bir guruh tarkibidagi birliklar mahalliy aholining turmush tarzi, ijtimoiy munosabatlari va madaniy qadriyatlari bilan uzviy bog'liq holda shakllangani aniqlandi.

Tadqiqot natijalari Baxmal hududining tog'li tabiiy muhiti, tarixiy taraqqiyoti va an'anaviy xo'jalik faoliyati sheva lug'at tarkibining shakllanishida muhim ekstralingvistik omillar bo'lganini ko'rsatdi. Ayniqsa, tabiat, chorvachilik, dehqonchilik, xalq tabobati va marosimlarga oid dialekt birliklarida mahalliy aholining ko'p asrlik amaliy tajribasi hamda ekologik bilimlari o'z ifodasini topgan.

Qarindoshlik terminlari va marosim leksikasining tahlili oilaviy munosabatlar, nutq etiketi va ijtimoiy ierarxiyaga oid qadimiy an'analar bugungi kunda ham shevada faol saqlanayotganini ko'rsatdi. Xalq

e'tiqodlari bilan bog'liq birliklar esa islomiy tasavvurlar hamda qadimgi mifologik qarashlarning o'zaro uyg'unlashgan holda dialekt tizimida davom etayotganini tasdiqladi. Bolalar folklori va aksiologik leksika esa mahalliy jamiyatning tarbiyaviy qarashlari, axloqiy me'yorlari va ideal inson haqidagi tasavvurlarini yoritishda muhim manba ekanligi aniqlandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi Baxmal tumani Madaniyat qishlog'i shevasi materiallarining ilk bor kompleks etnolingvistik yondashuv asosida tavsiflanganida namoyon bo'ladi. Tadqiqotda dialekt birliklari faqat leksik-semantik hodisa sifatida emas, balki xalqning madaniy xotirasini, etnik identitetini va konseptual dunyoqarashini ifodalovchi lisoniy belgilar sifatida talqin qilindi. Bu yondashuv o'zbek dialektologiyasida etnolingvistik tadqiqotlar metodologiyasini boyitishga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqot natijalari o'zbek shevalarini faqat fonetik yoki leksik xususiyatlari asosida emas, balki etnomadaniy mazmuni nuqtayi nazaridan ham o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Shevalarda saqlanib qolgan dialekt birliklari milliy madaniyatning ko'plab arxaik qatlamlarini tiklash, xalqning tarixiy dunyoqarashini rekonstruksiya qilish hamda nomoddiy madaniy merosni hujjatlashtirish uchun muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Kelgusida Baxmal tumani va Jizzax vohasining boshqa shevalarini qiyosiy-etnolingvistik asosda tadqiq etish, dialekt birliklarining elektron korpusini yaratish, etnolingvistik lug'atini tuzish hamda ularning lingvogeografik xaritalarini ishlab chiqish o'zbek dialektologiyasi va etnolingvistikasining dolzarb ilmiy yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi. Bunday tadqiqotlar o'zbek tilining hududiy variantlarini chuqurroq o'rganish bilan birga, milliy madaniy merosni asrash va uni ilmiy muomalaga kiritishga ham munosib hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Andaniyazova G. Badiiy matnni tushunishda leksik vositalarning o'rni // "O'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. — Toshkent, 2025. — B. 93–96. — URL: <https://adabiyotxazinasasi.com/index.php/conf/article/view/175> (murojaat sanasi: 03.09.2026). — DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17488718>.

Baratova S. "Devoni Nihoniy"da o'g'uz lahjasi unsurlari // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. — 2021. — T. 1, № 4. — B. 575–580. — URL: <https://paper.researchbib.com/view/paper/283933> (murojaat sanasi: 03.09.2026).

Begjanov X. Sh. Turkiy tilshunoslikda etnografik leksikaning tadqiqining ba'zi masalalari // Innovation and Development. — 2026. — T. 4, № 5. — B. 576–581. — URL: <https://adabiyotxazinasii.com/index.php/inno/article/view/1626> (murojaat sanasi: 03.09.2026).

Darvishov I. Shevalar — etnoslararo til munosabatlarining tarixiy dalili (Janubi-g'arbiy Namangan shevalari asosida) // Uzbekistan: Language and Culture. — 2019. — T. 4, № 4. — B. 51–65. — URL: <https://uzlc.tsuull.uz/index.php/uzlangcult/article/download/18/16> (murojaat sanasi: 03.09.2026). — DOI: <https://doi.org/10.52773/tsuull.uzlc.2019.4/NEQS6803>.

Egamov V. O'zbek tilining G'allaorol shevasi. — T., 1955. — 150 b.

Hasanov A. Madaniyat qishloq shevasining fonetik xususiyatlariga oid mulohazalar // “O'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. — Toshkent, 2025. — B. 181–185. — DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17488911>.

Hasanov A. Baxmal tumani Madaniyat qishlog'i shevasi. — T.: Bookmany Print, 2025. — 192 b. — URL: https://www.researchgate.net/publication/397899941_Baxmal_tumani_Madaniyat_qishlog%27i_shevasi (murojaat sanasi: 03.09.2026).

Isayeva M. M. O'zbek etnomadaniy merosi negizida o'smirlarning hayotiy yo'l tanlashiga ijtimoiy-psixologik yondashuv // Научный Фокус. — 2025. — № 30 (100), ч. 1. — B. 47–56. — URL: <https://nauchnyimpuls.org/index.php/fokus/article/view/1825> (murojaat sanasi: 03.09.2026).

Jo'rayev X. O'zbek tili turk-kaltatoy shevasining fonetik va leksik xususiyatlari. — T.: Fan, 1981. — 120 b.

Khasanov A. Dictionary of Uzbek Dialects [Data set] // Mendeley Data. — Version 1. — 2026. — DOI: <https://doi.org/10.17632/9zxvfygrzw.1>.

Khasanov A. Lexical gaps in the vocabulary of the language (based on the Uzbek language) // Transactions of the Blagoveshchensk State Pedagogical University. — 2026. — Vol. 90, № 2. — P. 27–39. — DOI: https://doi.org/10.48344/20740859_2026_2_27.

Khasanov A. Lexical-semantic and ethnolinguistic study of clothing names in the Uzbek language [Data set] // Mendeley Data. — Version 1. — 2026. — DOI: <https://doi.org/10.17632/6r8wkwf5sy.1>.

Khasanov A. The dialect of Madaniyat village, Baxmal district [Data set] // Mendeley Data. — Version 1. — 2026. — DOI: <https://doi.org/10.17632/7p7dprtwdr.1>.

Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab // O‘zbek tili va adabiyoti. — 2012. — № 5. — B. 3–16.

Ochilova Sh., Suvonova R. Baxmal shevasida leksik farqlanuvchi so‘zlar va ularning tahlili // Advances in Science and Humanities. — 2026. — T. 2, № 4. — B. 83–86. — DOI: <https://doi.org/10.70728/human.v02.i04.019>.

Xudoyberganova D. Antropotsentrik tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. — Toshkent: Tubo nashr, 2022. — 120 b.

Yusufov B. “Devon-u lug‘otit turk” va o‘zbek shevalarida -man/-men qo‘shimchasi // “O‘zbek tilshunosligining dolzarb masalalari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. — Toshkent, 2025. — B. 165–171.

Yusufov B., Khasanov A., Otaxonova D., Qobulova D. O‘zbek shevalariga yangicha yondashuv. — Toshkent: Bookmany Print, 2024. — 122 b.

Hasanov A. O‘zbek adabiy tilidagi leksik bo‘shliqlarni to‘ldirishning dialektal asoslari. — T.: Bookmany Print, 2022. — 130 b. — URL: https://tsuull.uz/sites/default/files/kitob_5.pdf (murojaat sanasi: 03.09.2026).

References

Andaniyazova, G. (2025). Badiiy matnni tushunishda leksik vositalarning o‘rni [The role of lexical means in understanding a literary text]. In *“O‘zbek tilshunosligining dolzarb masalalari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari* (pp. 93–96). <https://doi.org/10.5281/zenodo.17488718>

Baratova, S. (2021). “Devoni Nihoniy”da o‘g‘uz lahjasi unsurlari [Elements of the Oghuz dialect in “Devoni Nihoniy”]. *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*, 1(4), 575–580. <https://paper.researchbib.com/view/paper/283933>

Begjanov, X. Sh. (2026). Turkiy tilshunoslikda etnografik leksikaning tadqiqining ba’zi masalalari [Some issues in the study of ethnographic vocabulary in Turkic linguistics]. *Innovation and Development*, 4(5), 576–581. <https://adabiyotxazinasi.com/index.php/inno/article/view/1626>

Darvishov, I. (2019). Shevalar — etnoslararo til munosabatlarining tarixiy dalili (Janubi-g‘arbiy Namangan shevalari asosida) [Dialects as historical

evidence of interethnic language relations: Based on the dialects of southwestern Namangan]. *Uzbekistan: Language and Culture*, 4(4), 51–65.
<https://doi.org/10.52773/tsuull.uzlc.2019.4/NEQS6803>

Egamov, V. (1955). *O‘zbek tilining G‘allaorol shevasi* [The G‘allaorol dialect of the Uzbek language].

Hasanov, A. (2022). *O‘zbek adabiy tilidagi leksik bo‘shliqlarni to‘ldirishning dialektal asoslari* [Dialectal foundations for filling lexical gaps in the Uzbek literary language]. Bookmany Print.
https://tsuull.uz/sites/default/files/kitob_5.pdf

Hasanov, A. (2025a). *Baxmal tumani Madaniyat qishlog‘i shevasi* [The dialect of Madaniyat village, Baxmal district]. Bookmany Print.
https://www.researchgate.net/publication/397899941_Baxmal_tumani_Madaniyat_qishlog%27i_shevasi

Hasanov, A. (2025b). Madaniyat qishloq shevasining fonetik xususiyatlariga oid mulohazalar [Observations on the phonetic features of the dialect of Madaniyat village]. In “*O‘zbek tilshunosligining dolzarb masalalari*” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari (pp. 181–185). <https://doi.org/10.5281/zenodo.17488911>

Isayeva, M. M. (2025). O‘zbek etnomadaniy merosi negizida o‘smirlarning hayotiy yo‘l tanlashiga ijtimoiy-psixologik yondashuv [A socio-psychological approach to adolescents’ choice of a life path based on Uzbek ethnocultural heritage]. *Nauchnyy fokus [Scientific Focus]*, 30(100, Part 1), 47–56.
<https://nauchnyimpuls.org/index.php/fokus/article/view/1825>

Jo‘rayev, X. (1981). *O‘zbek tili turk-kaltatoy shevasining fonetik va leksik xususiyatlari* [Phonetic and lexical features of the Turk-Kaltatoy dialect of the Uzbek language]. Fan.

Khasanov, A. (2026a). *Dictionary of Uzbek dialects* (Version 1) [Data set]. Mendeley Data. <https://doi.org/10.17632/9zxvfygrzw.1>

Khasanov, A. (2026b). Lexical gaps in the vocabulary of the language (based on the Uzbek language). *Transactions of the Blagoveshchensk State Pedagogical University*, 90(2), 27–39.
https://doi.org/10.48344/20740859_2026_2_27

Khasanov, A. (2026c). *Lexical-semantic and ethnolinguistic study of clothing names in the Uzbek language* (Version 1) [Data set]. Mendeley Data. <https://doi.org/10.17632/6r8wkwf5sy.1>

Khasanov, A. (2026d). *The dialect of Madaniyat village, Baxmal district* (Version 1) [Data set]. Mendeley Data. <https://doi.org/10.17632/7p7dp7wdr.1>

Mahmudov, N. (2012). Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab [In search of ways to conduct a comprehensive study of language]. *O‘zbek tili va adabiyoti*, (5), 3–16.

Ochilova, Sh., & Suvonova, R. (2026). Baxmal shevasida leksik farqlanuvchi so‘zlar va ularning tahlili [Lexically distinctive words in the Baxmal dialect and their analysis]. *Advances in Science and Humanities*, 2(4), 83–86. <https://doi.org/10.70728/human.v02.i04.019>

Xudoyberganova, D. (2022). *Antropotsentrik tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati* [An explanatory dictionary of anthropocentric linguistics terms]. Tubo Nashr.

Yusufov, B. (2025). “Devon-u lug‘otit turk” va o‘zbek shevalarida -man/-men qo‘shimchasi [The suffix -man/-men in “Devon-u lug‘otit turk” and Uzbek dialects]. In “*O‘zbek tilshunosligining dolzarb masalalari*” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari (pp. 165–171).

Yusufov, B., Khasanov, A., Otaxonova, D., & Qobulova, D. (2024). *O‘zbek shevalariga yangicha yondashuv* [A new approach to Uzbek dialects]. Bookmany Print.